

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

“XALQ IJODIYOTI” FAKULTETI

“MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH”
KAFEDRASI

“ MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARIDA OILA
TARBIYASI MUAMMOSI TAHLILI ”

mavzusidagi

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

“Bitiruv malakaviy ish kafedrada
dastlabki himoyadan o'tdi”
“Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish va
boshqarish”

kafedrasining 10 - sonli yig'ilish
bayonnomasi

“19” mae 2016 yil

Kafedra mudiri:

H.X. Shodiyev



Bajardi: 5151700 – “Madaniyat va
san'at muassasalarini
tashkil etish va boshqarish”
ta'limyo'nalishi bitiruvchisi
Shodiyeva Maftuna

Ilmiy rahbar: [Signature]
sots.f.d., prof. Bekmurodov Mansur

TOSHKENT – 2016

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi dolzarbligi: Istiqlol yillarida ijtimoiy sohaning yirik va keng ko‘lamli yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan madaniyat sohasi, ayniqsa, mamlakatimizning shahar, tumanlari, qishloqlari va chekka hududlarida istiqomat qiladigan aholining barcha qatlamlariga madaniy xizmat ko‘rsatish, yoshlarning bo‘sh vaqtlarini mazmunli o‘tkazishlariga xizmat qiladigan madaniyat muassasalariga e‘tibor ko‘rsatish, ularning moddiy- texnik negizini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish, ularning maqsad va vazifalarini to‘g‘ri belgilash, milliy manfaatlarimizga xizmat ko‘rsatadigan muhim maskanga aylantirish masalasi ham davlatimiz rahbarining e‘tiboridan chetda qolmadi. Sobiq kommunistik partiya g‘oyalarining targ‘ibotchisi vazifasini bajarib kelgan klublar, madaniyat uylarining ahvoli juda achinarli holatga kelib qolgan edi. Ularning ko‘pchiligi o‘z binosiga ega bo‘lmay, hisobotlardagina qayd qilinar edi. Ana shunday noxush holatlarni bartaraf etish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining topshirig‘iga asosan barcha klub muassasalari, madaniyat uylari to‘liq inventarizatsiyadan xatlovdan o‘tkazildi. Belgilangan chora-tadbirlar va olib borilgan amaliy ishlar natijasida hududlarda *zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari* - aholi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoshlarning ma‘naviy olamini yanada boyitish, mazmunli dam olishlarini tashkil etish hamda yurtdoshlarimizga yuqori saviyada madaniy xizmat ko‘rsatish uchun yangi-yangi markazlar barpo etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarori qabul qilindi. Milliy madaniyatimiz an‘analarini o‘rganish, aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, mazmunli dam olishini ta‘minlashga yo‘naltirilgan qaror ijrosini ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2013 yil 28 iyundagi 704-son buyrugi qabul qilinib, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko‘rsatgan 1777ta madaniyat uylari va klublar negizida 894ta zamonaviy madaniyat va aholi dam

olish markazlari qayta tashkil etilib, ta'mirlanmoqda, moddiy- texnik bazasi to'liq yangilanmoqda. Zamonaviy markazlarda yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yo'lga qo'yish, elektron resurslar, internet- studiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar, tanlovlar, foto va amaliy san'at ko'rgazmalari tashkil etiladi. Xalq ijodiyoti va tomosha san'atining minifestivallari, mahalliy urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi ommaviy teatrlapggirilgan bayram tomoshalari, xalq sayillarini tashkil etish orqali badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish, milliy an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarining boshqa madaniyat va san'at muassasalaridan farqi shundaki, ularda tashkil qilinayotgan to'garak va mashg'ulotlarga yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan havaskorlar, kasbidan qati nazar ishtirok etishlari mumkin. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga, Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari va metodik ko'rsatmalariga hamda tegishli Nizomiga muvofiq olib boradi.

Yangi tashkil etilayotgan Madaniyat va aholi dam olish maskanlari imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga asosan barcha klub muassasalari, madaniyat uylari to'liq inventarizatsiyadan - xatlovdan o'tkazildi.

Belgilangan chora-tadbirlar va olib borilgan amaliy ishlar natijasida hududlarda *zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari* - aholi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoshlarning ma'naviy olamini yanada boyitish, mazmunli dam olishlarini tashkil etish hamda yurtdoshlarimizga yuqori saviyada madaniy xizmat ko'rsatish uchun yangi-yangi markazlar barpo etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat

va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarori qabul qilindi. Milliy madaniyatimiz an'analarini o'rganish, aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, mazmunli dam olishini ta'minlashga yo'naltirilgan qaror ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston

Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2013 yil 28 iyundagi 704-son buyrugi qabul qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatgan 1777ta madaniyat uylari va klublar negizida 894ta zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari qayta tashkil etilib, ta'mirlanmoqda, moddiy- texnik bazasi to'liq yangilanmoqda.

Oilada madaniy tarbiya davlat e'tiborida bo'lib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 14 martdagi PQ-1920-son qarori bilan tasdiqlangan "Obod turmush yili" Davlat dasturining 65-bandini bajarish yuzasidan hamda aholining, ayniqsa yosh avlodning o'sib borayotgan madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini samarali va mazmunli o'tkazishini tashkil etish buyicha amalga oshirilayotgan ishlar buning yakkol ifodasidir.

Shu nuqtai nazardan madaniyat muassasalarining moddiy holatini yaxshilashga alohida e'tibor karatildi Buning uchun esa Xususiy lashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda maqbul binolarni (ko'p funksiyali zali bo'lgan), shu jumladan qishloq kinoteatrlari hamda idoralar, tashkilotlar va korxonalarining, sobiq kolxozlar va sovxozlarning foydalanilmayotgan binolarini madaniyat va aholi dam olish markazlariga ajratish, shuningdek ulardagi mavjud, foydalanishga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarning yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholining dam olish markazlari balansiga belgilangan tartibda berilishi ta'minlandi aholi dam olish markazlari tashkil etilishi va ularning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi, aholini bo'sh vaqtni samarali va mazmunli o'tkazishga markazlarning joylashgan joyiga va xizmat ko'rsatiladigan aholi soniga qarab amaldagi shtatdagi xodimlar soni doirasida madaniyat va aholi dam olish markazlarining namunaviy shtat jadvallarini ishlab binolarining amaldagi holatidan kelib chiqib 2013-2018 yillar uchun mahalliy byudjetlar mablag'lari, shu jumladan

madaniyat uylari va klub muassasalarining soni hamda ular xodimlarining soni maqbullashtirilishi munosabati bilan bo'shab qoladigan mablag'lar hisobiga, shuningdek jalb etiladigan homiylik mablag'lari va boshqa mablag'lar hisobiga madaniyat va aholi dam olish markazlarini bosqichma-bosqich mukammal ta'mirlash va jihozlashning mintaqaviy manzilli ro'yxatlarini ishlab chiqarildi. Zamonaviy markazlarda yoshlarning estetik va Madaniyat va aholi dam olish markazlari joylashgan o'rni va xizmat ko'rsatadigan aholi soniga qarab I, II, III tiplarga bo'linadi.

1-tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rinli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning markazlarida faoliyat ko'rsatadi.

2-tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rinlar soni 250 tani tashkil etadigan zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida faoliyat ko'rsatadi.

3-tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 7 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rinlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda tuman markazlari va qishloq joylarda faoliyat ko'rsatadi.

Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati: Bitiruv malakaviy ishining amaliy ahamiyati oila imkoniyatlarini Madaniyat va aholi dam olish markazlari imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirish, bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yanada takomillashtirish, Bitiruv malakaviy ishimizda Madaniyat va aholi dam olish markazlarining zamonaviy funksiyalarini asoslashda namoyon bo'ladi.

Bitiruv malakaviy ishi predmeti: Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatida oila instituti imkoniyatlarini samarali ro'yobga chiqarish masalalarini ilmiy-amaliy tadqiq etishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishi maqsadi: Madaniyat va aholi dam olish markazlarida oila tarbiyasi holatini tadqiq etishdan iborat

Bitiruv malakaviy ishi vazifalari

- oilani sotsial institute sifatida tadqiq etish.
- madaniyat va aholi dam olish markazlarida oila tarbiyasini tizimli tarzda

o'rganish

- Oila omilining davlat e'tiborida ekanligini tadqiq etish
- Oila tarbiyasida din omilining o'rnini tadqiq etish

Bitiruv malakaviy ishining o'rganilganlik darajasi

Madaniyat va aholi demolish markazlari faoliyatiga bevosita bag'ishlangan asarlar soni uncha ko'p emas¹. Ammo mazkur muassasaning XX asr va XXI asrning birinchi o'n yilligi mobaynida amal qilgan tashkilotlar, ya'ni madaniy-ma'rifiy muassasalar faoliyati haqida qator adabiyotlar mavjud²,shuningdek, oila institutifaoliyati bo'yicha qator adabiyotlar mavjud.³

¹ M.Bekmurodov, A.Umarov Z.Haydarov, U.Qoraboyev "Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazaryasi tarixi va uslubiyoti",T.2016 A.Haydarov "Madaniyat va san'at soxasidagi me'yoriy hujjatlar majmui" T.2016 U.Qoraboyev "O'zbek bayramlari" T.2009.

² Alimova Sh."Ijtimoiy-madaniy faoliyat asoslari"T.2010, M.Bekmurodov. Rashidova M "Muzeyshunoslik" T.2008. Qoraboyev.U "Madaniyat tarixi" T.2004

³ Karimova B "Oila pedagogikasi" T. 2006

I BOB. OILA SOTSIAL INSTITUT SIFATIDA.

1.1 MADANIYAT VA AHOLI DAM OLISH MARKAZLARIDA OILA TARBIYASI


Bu yorug‘ dunyoda hayot bor ekan, oila bor. Oila bor ekan, farzand deb atalmish bebaho ne‘mat bor. Farzand bor ekan, odamzot xamisha ezgu orzu va intilishlar bilan yashaydi.

Oila-ijtimoiy institut va kichik guruh xususiyatlariga ega bo‘lgan ijtimoiy tizim. Oila er-xotin, ota-onalar, bolalar va boshqa yaqin qarindoshlar munosabatlarini tartiblovchi ijtimoiy me‘yorlar, taqiqlar va xulq-atvor na‘munalari majmui bilan ifodalanadi. Oila turmush birligi, o‘zaro ahloqiy mas‘uliyat va o‘zaro yordam bilan bog‘lanib ketgan nikoh yoki qon-qardoshlikka asoslangan kichik guruh sifatida ham qaraladi. Oila ijtimoiy muhim ehtiyojlarni qondirish bilan ajralib turadi.

Fanda oilaga quyidagicha ta‘rif beriladi: “Oila-insonlarning tabiiy-biologik, nikoh, qon-qarindoshlik, iqtisodiy, huquqiy, ma‘naviyat munosabatlariga asoslangan, turmush birligi va o‘zaro javobgarlik his- tuyg‘ulari orqali bog‘langan ijtimoiy guruhdir”.

Oila-kishilar xayotining eng muxim qismi, jamiyatning kichik hujayrasi, ijtimoiy-madaniy organizm. Oila-er-xotin ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo‘jalik yuritadigan er-xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar, bobo-buvilar va boshqa qarindoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy guruh, jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.

Oila sotsiologiyasi- sotsiologiyada oilani ijtimoiy institut sifatida o‘rganuvchi yo‘nalish. Oilaning o‘z asosiy funksiyalarini bajarishi, turli xildagi oilalarning turmush tarzi va boshqa muammolar uning mavzuini tashkil etadi. hozirgi oila sotsiologiyasida quyidagi yondashuvlar mavjud




(2.6- Chizma).

Oilani sotsiologik tadqiq etish AKD1, Fransiyada, Boltiqbo‘yi mamlakatlarida taraqqiy etgan. Mamlakatimizda 1998 yilning “Oila yili” deb e’lon qilinishi bilan bizda xam oila sotsiologiyasiga qiziqish kuchaydi. Prezidentimiz Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” (2008) asarida “Bolaning xarakteri, tabiati va dunyoqarashini belgilaydigan ma’naviy mezon va qarashlar-yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mexr-oqibat, or-nomus va andisha kabi muqaddas tushunchalarning poydevori oila sharoitida qaror topishi tabiiydir”.⁴

Oilaning sotsial mohiyati xamda uning ahloqiy va huquqiy - asoslari mamlakatimiz Konstitusiyasida oilaning ijtimoiy maqomi aniq belgilab ko‘yilgani, shu asosda Oila, Fuqarolik, Uy-joy kodekslari va boshqazaruriy qonun xujjatlari qabul qilinib, bu borada tegishli huquqiy poydevorlar yaratilmoqda.

⁴ “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” I.A.Karimov.2008



Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси 1948 йил 10 декабрда қабул қилинган. У 30-моддан иборат, декларациянинг 16 - моддаси оилга бағ'ишланган. инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси 360 дан ортиқ тилда chop этилган ва жaxonda eng ko'p таржима қилинган ҳужжат хисобланади.

Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон Декларацияси 16 - моддаси:

Балог'ат yoshiga yetgan erkaklar va ayollar irqi, millati yoki diniy belgilari bo'yicha hech qanday cheklanishlarsiz nikohdan o'tishga va oila qurishga xaqli. Ular nikohdan o'tishda, nikohda turgan vaqtlarida va bekor qilish vaqtida bir xil huquqlardan foydalanadilar.

Nikoh har ikki tomonning erkin va to'liq roziligi asosidagina tuzilishi mumkin.

Z.Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasi sanaladi va jamiyat hamda davlat tomonidan himoya qilinishga xaqli.

O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 1992 yil 8-dekabrda qabul qilingan. U 6-bo'lim, 26 bob, 128-moddadan iborat. Konstitusiyaning 14 bobi, 63 -66 -moddalari, oilaga baғ'ishlanadi 63-moddada "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega." Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi.⁵64-moddada "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga

⁵ O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi 14 bob 63 -66 –moddalari. 1992.

qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar”.

Davlat va jamiyat yetim bolalarni va ota-onalarining vasiyligidan mahrum boʻlgan bolalarni boqish, tarbiyalash va oʻqitishni taʼminlaydi, bolalarga bagʻishlangan xayriya faoliyatlarini ragʻbatlantiradi.


modda. Farzandlar ota-onalarning nasl-nasabidan va fuqarolik holatidan qatʼiy nazar, qonun oldidatengdirlar.

Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

modda. Voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar oʻz ota-onalari haqida gʻamxoʻrlik qilishga majburdirlar.

Nikoh va oila sotsiologiyasi oʻz mazmuniga koʻra juda keng koʻlamga ega boʻlib, hozirgi zamon oila-nikoh munosabatlarining barcha jihatlarini oʻz ichiga oladi. Yangi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning tarkib topa borishi oila-nikoh munosabatlarida ham jiddiy oʻzgarishlarni, oilaviy munosabatlarda vujudga kelayotgan yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Ayniqsa, ularning ichida oila-nikoh munosabatlarining huquqiy-yuridik yoʻnalishi, ahloqiy estetik, oila va islom dini, oila va aholi salomatligini himoya qilish muammosi, oila soni, tarkibi va tuzilishi, oilaning moddiy-iqtisodiy taʼminoti, turmush darajasi, oilada er-xotinning oʻrni va roli, oiladagi ruhiy muhit, oilaviy mojarolar vaajralishlar, ularni keltirib chiqaradigan sabablar, yosh oilalar va ularning ahvoli kabi yoʻnalishlar muhim sotsiologik tadqiqot obekti boʻlib kelmoqda.

2.8-Chizma




Oila-nikoh sotsnologiyasi turmush tarzi sotsnologiyasi bilan uzviy bogʻliqholda olib qarab oʻrganiladi. Zero, oila bilan bogʻliqboʻlgan barcha masalalar kishilar turmush tarzi

tarkibiga kiradi. Ammo, oila jamiyatning

kichik yacheykasi sifatida maxsus sotsiologik tadqiqotga muhtoj. Shuning uchun ham oila-nikoh sotsnologiyasi maxsus sotsiologik nazariya sifatida hozirgi davr jamiyat ijtimoiy hayotini ilmiy jihatdan o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

2.9-Chizma




Oila-nikoh munosabatlarining asosiy sotsiologik tushunchalariga quyidagilar kiradi: Oilaviy hayot sharoiti, oila tarkibi, oila funksiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy mafkura va boshqalar.

Bu tushunchalar oila-nikoh munosabatlarining eng muhim jihatlarini o'zida ifodalaydi.

Oila jamiyat ijtimoiy tarkibining muhim elementi sifatida o'ziga xos ijtimoiy vazifalarni bajaradi. Oilaning ijtimoiy vazifasi (funktsiyasi) deganda, oila va uning a'zolari hayot faoliyati, faollikni namoyon qipish usuliga bag'ishlanadi. Ularga quyidagilar kiradi: biologik ko'payish, tarbiyaviy, xo'jalik-iqtisodiy, o'zaro yordam, kommunikativ, regulyativ kabilar.

2.10-Chizma




1.2 Sotsial guruh tushunchasi, uning asosiy belgilari va turlari xamda kichik guruhga doyr nazariyalar.

Sotsial (ijtimoiy) guruh - individlar majmui. Ijtimoiy guruhga mansub individlar ushbu guruhga mansub xar bir a'zoning boshsalarga nisbatan muljali asosida o'zaro xarakat kiladi.


Sotsial guruh deb, muntazam ravishda bir-biri bilan o'zaro bog'langan, hamkorlik qiladigan hamda o'ziga xos maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan ijtimoiy guruhlarga aytiladi.

“Sotsial guruh” tushunchasi ijtimoiy munosabatlar subektini (jamiyat- guruh-shaxs) aniqlashga xizmat qiladigan umumsotsiologik tushunchalar tarkibiga kiradi. Bu uchlik, ya'ni jamiyat-guruh-shaxs munosabatida sotsial guruh “sintez qiladigan” tushuncha hisoblanadi


1.1-Чизма.




1.2-Чизма.




1.5-Chizma





4.1.3-Чизма.

4.1.4-Чизма.



Социал гуруҳнинг асосий белгиги, уларни ижтимоий характер хусусиятлари бир-бирига яқинлаштиради. Гуруҳ аъзолари бошқалардан кутмайдиган маълум хатти-ҳаракатларни бир-бирдан кутадилар.


Bu guruhlarning har biri haqida kisqacha to‘xtalamiz.

Katta va kichik guruhlar:


a) Katta guruhlar-katta miqdordagi a‘zolarga ega bo‘lgan, turli aloqalar xillariga asoslangan ijtimoiy guruhlar. Masalan, O‘zbekiston xotin-xizlar tashkiloti, “Kamolot” yoshlar ijtimoiy xarakati (YOYuf va h-k.)

Katta guruhlarning o‘zi ikki turga bulinadi: 1) Tasodifiy (stixiyali) paydo bo‘ladigan

guruhlar; 2) Tarixiy rivojlanish bilan paydo bo'lgan guruhlar.



7-Chizma.



Katta sotsial guruhlarda kichik guruhlarda yo'q bo'lgan xatti-xarakatni boshkarib turadigan o'ziga xos kuch mavjud. Bu xuquqlar, urf-odatlar va an'analardir.

Katta guruh bilan kichik guruh o'rtasida o'rta guruh xam bor. Ammo guruh muammosi bilan shug'ullanayotgan sotsiologlar fikricha, erta guruhlar, ularning strukturasi, aloqasi, unda bo'ladigan xodisa va jarayonlar mohiyat jihatdan kattaroq guruhlariga xosdir. Kichik va katta guruhlar o'rtasidagi farqni kichik guruhning yiriklashuvi va uning katta guruhga aylanish jarayonida ko'rish mumkin. Masalan, bir yoki bir necha

taniqli kishilar atrofida birlashgan, 40-45 kishidan iborat partiya kichik guruhdir, chunki bu guruh vakillarining shaxsan bir-birlarini tanishlari (bilishlari) kichik guruhga xos bo'lgan xususiyatni beradi.

b) Kichik guruhlar - o'zining a'zolari o'rtasida bevosita aloqa va munosabatlarga ega bo'lgan ijtimoiy guruh (masalan, oila va h.k.).

Kichik guruhlar deganda, ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonli guruhlar tushuniladi. Bu guruhlar ko'pincha samimiy do'stlik munosabatlari bilan bog'langan bo'ladi, guruh a'zolari o'rtasida bevosita o'zaro aloqalar ustun turadi, guruh a'zolari o'rtasidagi munosabatlar norasmiy institutlar yordamida tartibga solinadi. Bundan tashqari, maxsus vazifalarni bajarishga mo'ljallangan, yuqori darajada shakllangan kichik maqsadli guruhlar xam mavjud. Bu guruhlarda a'zolar o'rtasidagi munosabatlar maxsus xizmat ko'rsatmalari bilan tartibga solinadi. Yashirin ishlayotgan partiya yacheykasi bunga misol bo'la oladi. Kichik guruhlarga oilani, do'stlarni, qo'shnilarni ishlab chiqarish brigadasini va boshqa guruhlarni kiritish mumkin.

Kichik sotsial guruhlarining turlari juda ko'p. Ular xilma-xil mezonlarga qarab turlarga ajratiladi. Guruh munosabatlari strukturasi qarab kichik sotsial guruhlar rasmiy va norasmiy guruhlarga, a'zolar o'rtasidagi munosabatlarning yaqinligiga qarab birlamchi va ikkilamchi guruhlarga, guruhga a'zo bo'lish va bo'lmasligiga qarab a'zoli va referent guruhlarga bo'linadi.

Sanab o'tilgan guruhlarni birma-bir ko'rib chiqamiz.

Rasmiy va norasmiy sotsial guruhlar, guruhlarni bunday tarzda turlarga bo'lish birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog E. Meyo tomonidan taklif qilingan edi, guruhlarni rasmiy va norasmiy guruhlarga ajratish asosida guruh munosabatlarning strukturasi yotadi.

Rasmiy guruhlar — bu huquqiy statusga ega bo'lgan sotsial institut, tashkilot qismi xisoblanadigan mavjud institut, tashkilotdagi mehnat doirasida aniq maqsadga ega bo'lgan sotsial guruhlardir. Rasmiy guruhlarga siyosiy partiyalar, davlat, diniy va boshqa tashkilotlar, ishlab chiqarish kollektivi, maktab sinfi, sport komandasi va boshqalarni kiritish mumkin

Rasmiy guruhlarda guruh; maqsadlari, funksiyalari hatti-harakat qoidalari, xatto a'zolik shartlari maxsus xujjatlar (dastur, instruksiya, qonun va boshqalar)da qayd etilgan

bo'ladi.

Rasmiy guruhning o'zi ikki turga:

- a) rasmiy (korxonalar, davlat, jamoat tashkiloti);
- b) rasmiy tan olingan, ya'ni norasmiy: yashirin tashkilotlar.

Norasmiy guruhlar - yashirin tashkilotlardir. Bu guruhlar muntazam tashkilotga ega emas, rasmiy saylangan martabali shaxslar, nizomlar yo'q, kun tartibi va aniq maqsad bo'lmaydi. Masalan, ishchilar guruhi doirasida yuzaga kelgan do'stlar munosabati birga ishlashlari bilan emas, bo'sh vaqtlarini birga o'tkazish, bir-biriga o'zaro yordam berish va h.k. Yoki "sotsial psixologik guruhlar" va hokazo. Norasmiy guruhlar, ko'pincha bunday guruhlar "psixologik guruhlar yoki "sotsial psixologik guruhlar" deb ataladi. Chunki bu guruhlarning tashkil topish zaminida guruh a'zolari o'rtasidagi psixologik, hissiy munosabatlar yotadi. Norasmiy guruhlarning paydo bo'lishida vaziyat va umumiy manfaatlar majmui muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham bu guruhlarini ba'zan, manfaat yuzasidan tuzilgan guruhlar deb atashadi. Odamlar ehtiyojlari turli-tuman bo'lganligi sababli norasmiy guruhlar mavjud.

Norasmiy guruh rasmiy guruhga qaraganda boshqacha tuzilishga ega. Agar rasmiy guruhda guruh sotsial strukturaning yuqori organlari va hatto jamiyat tomonidan tuzilsa, norasmiy guruhlar esa shaxsiy asosda, ya'ni uni tashkil etadigan individlar tashabbusi bilan tuziladi. Tashabbuskor kishilar bu guruhda faol rol uynaydilar va o'z-o'zidan guruhda a'zolarining ehtiyojlarini qondirishga imkoniyat beradigan xatti-harakat sistemasi rivojlanadi.

Birlamchi va ikkilamchi guruhlar. Shaxsning yaqinligiga ko'ra, kichik guruhlar birlamchi va ikkilamchi guruhlariga bo'linadi. Fanga birlamchi guruh terminini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog CH. Kuli (1864-1929) tomonidan XX asrning boshlarida kiritilgan.

1) Birlamchi guruh, bu biz uchun bir xil ahamiyatga ega emas. Bu guruh a'zolari soni kamligi, hududiy yaqinligi, samimiy munosabatlari, maqsad umumiyliigi va hokazolar bilan farqqiladilar. Ba'zi guruhlar hayotimizning ko'plab jihatlarini qamrab oladi va boshqalar bilan shaxsiy aloqalar o'rnatilishiga sabab bo'ladi. Oila birlamchi guruh. Oila hayoti har doim ham tinch va osoyishta o'tmaydi, oilalarda ko'plab notekisliklar da

dushmanlarcha munosabat ham uchraydi.

2) Ikkilamchi guruh deb, bir aniq maqsadga erishish uchun tuzilgan har qanday turdagi guruhlariga aytiladi. Bu guruh doimiy tarzda uchrab turadigan, lekin shaxsiy aloqalarga ega bo'lgan insonlar guruhidir. Albatta, hayotda birinchi va ikkinchi guruhlar o'rtasida farq unchalik emas. Masalan, qo'mita majilislari doimo uchrashib turadigan insonlar do'stlashib, keyinchalik norasmiy uchrashuvlar ham o'tkazib turishlari mumkin. Ikkilamchi guruhlariga kasbiy, diniy, siyosiy guruhlarini kiritish mumkin.

Inguruh va autguruh:


Inguruh (lot.-ichida va guruh) -individ o'zini o'ziga mansubligini his etuvchi guruh.

Individbunday guruh a'zolarini "biz" sifatida qaraydi.

Aut guruh (ing.-tashqarida va guruh) - individ o'zini mansub deb hisoblamaydigan odamlar guruhi. Bunday guruh a'zolarini individ "bizniki emas", "begonalar" tarzida qabul qiladi.

Referent guruhlar. (Referent guruh termini inglizcha so'z bulib "mansub bo'lish" degan ma'noni anglatadi). Bu termin amerikalik sotsialog psixolog Mustafu Sherif tomonidan kiritilgan. Individ ongli ravishda kiradigan sotsial guruhlariga (iqtisodiy, siyosiy, madaniy, kasbiy) nisbatan shplatiladi. Katta va kichik referent guruhlarini - sinf yoki ijtimoiy tabaqa bulishi mumkin.

4.1.9-Chizma.



Kvazi guruhlar (lot.-go'yoki va guruh)-maqsadsiz ravishda vujudga keluvchi ijtimoiy guruh bulib, unda mustaxkam muljallar bulmaydi, a'zolari urtasidagio'zaro xarakatlar esa odatda bir tomonlama buladi. Kvaziguruh bexosdan paydo bulishi va nomustaxkamligi bilan ajralib turadi.

Qon-kardoshlikka asoslangan guruhlar:

- Urug'.
- Qabila.
- Qarindoshlar.
- Oila.
- Elat.
- Millat va hokazo.

8. G'arb sotsiologiyasnda kichik guruhlar nazariyasi kuyidagilardan iborat:

Sotsiometriya nazariyasi.

Guruh o'zgaruvchanligi.


Psixoterapevtax nazariY.

Sotsiometriya nazariyasi (lot.-jamiyat va yunon.-meyor)-ijtimoiy ruxshunoslik soxasi bulib, u miqdoriy uslublar yordamida kichik guruhlardagi shaxslararo munosabatlarni guruh ichidagi ruhiy munosabatlarga e'tibor bergan holda o'rganadi. Kichik guruh ko'pi bilan bir necha o'nlab a'zoldan iborat bo'lgan kam sonly guruhlardir.

Guruh o'zgaruvchanligi.


Psixoterapevtax nazariY.

1.10-Chizma



Sotsial (ijtimoiy) institut (**lot institutum**, ruscha lugʻaviy maʼnosi- ustanovleniya, oʻzbekcha maʼnoda: 1) nizom, qoidalar yoki ularning toʻplami;

Mahkama, tashkilot, muassasa atamalarida ishlatiladi. Ijtimoiy (sotsial) institut- insonlarning birgalikdagi faoliyatini tashkillashtirishning barkaror shakllangan tarixiy shaklidir. Jamiyat ijtimoiy institutlar tizimidan iborat buladi.




Institusional sotsiologiya-ijtimoiy hayotni tashkil etishning va idora qilishning (boshqarishning, regulyatsiya qilishning) barqaror shakllarini oʻrgatuvchi soxadir.

Sotsial institutlarni konkret tashkilot va guruhlardan farqlash lozim. Yuzaki koʻrinishda, sotsial institut muayyan vazifani bajaruvchi odamlar, muassasalar, idoralar majmui sifatida gavdalanadi. Mazmuniga koʻra esa sotsial institut va shaxslarning konkret vaziyatlarda amal qiladigan maqsadga muvofiq, rasmiy va norasmiy, barqaror, standartlashgan tamoyil, normalar, oʻrnashmalarini bildiradi.

Sotsial institut, qisqacha taʼrifda, odamlar sotsialtashkillashgan va regulyatsiya qilinadigan faoliyatni anglatadi. Sotsial institutlar hatti-xarakatining nisbatan barqaror shakl namunalarini, avlodan-avlodga oʻtuvchi anʼanalar, odatlarning qayta takror hosil

kilinishini xam ta'minlaydi. Sotsial strukturaga kiruvchi har bir sotsial institut muayyan ijtimoiy ahamiyat vazifalarini ado etish uchun tashkil topadi, xar bir sotsial institut faoliyat maqsadi, unga erishishni ta'minlovchi konkret funksiyalar, ushbu institutga xos o'lgan sotsial pozitsiya va rollar, shuningdek, maqsadga muvofik, kerakli xatti-harakatni rag'batlantiruvchi va deviant (og'ma) xatti-harakatlarga qarshi qaratilgan tazyiqlar (sanksiyalar) tizimi bilan tavsiflanadi (2.2-Chizma).


2.2-Chizma



Jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy, Huquqiy va xalkaro sohalariga xos bo'lgan sotsial institutlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Siyosiy institutlar muayyan hokimiyat mavjudligini, iqtisodiy institutlar esa moddiy ne'matlarning ishlab chiqarilishini, taqsimlanishini ta'minlaydi. Jamiyatning muhim institutlaridan biri oila hisoblanadi. Uning faoliyati (ota-onalar, ota-onalar va bolalar o'rtasidagi tarbiya


usullari) huquqiy va ijtimoiy normalar bilan belgilanadi. Bundan tashqari jamiyatda bir kator ijtimoiy-madaniy institutlar (maorif, sogliqni saqlash tizimlari, madaniy-tarbiyaviy muassasalar, fan va din institutlari) amal qiladi. Demak,

2.3-Chizma



sotsial institutlar sotsial muhit bilan o‘zaro ta’sirda bo‘ladi. Bu o‘zaro ta’sir normal tarzda, shuningdek, normaning buzilishi sharoitida ham bo‘lishi mumkin. har qanday real jamiyatda normativ tartibotga bo‘ysunmaydigan anomalhodisalar bo‘lishi tabiiydir.

Demak, amal qilish doirasi va vazifalariga qarab sotsial institutlarning quyidagi ko‘rinishlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:



Relyatsion (yozma ma’lumotlarga asoslanuvchi) institutlar. Bu institutlar jins va yoshdan tortib to kasb-mashg‘ulot turi va qobiliyati mezonlariga asosan jamiyatning rolga

oid tarkibini aniqlab beradi.

Regulyativ (idora etish) sotsial institutlari. Bu institutlar shaxsiy maqsadlarning jamiyatda amal qilib turgan normalariga daxlsiz xolda amalga oshish chegaralarini va bu chegaradan chiqib ketilganda qo'llaniladigan sanksiyalarni (bunda sotsial nazoratning xamma mexanizmlari xam kirib ketadi) belgilab beradi.

Integrativ (uyg'unlashtiruvchi) sotsial institutlar. Bu institutlar bir butun tuzumga jamiyat manfaatlarini qondirishga mas'ul bo'lgan sotsial rollarni ifodalaydi.

An'anaviy sotsial institutlar. Bu sotsial institutlar odat, marosimlar va qarindosh-urug'chilik tomonidan qat'iy belgilangan normalar bilan bog'likdir.

Madaniy sotsial institutlar. Din, san'at, adabiyot bilan bog'liq muassasalar.

Institusional sotsiologiyada sotsial institutlarning bajaradigan asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- a) jamiyat a'zolarini takror ishlab chiqarish, qaytadan tiklash;
- b) sotsializatsiya (individga ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan qadriyat va normalarni yetkazishning turli xil shakllari);
- v) ishlab chiqarish va taqsimot;
- g) tartibga rioya qilish va axloqni saqlab turish.

Jamiyat taraqqiyotining xar bir bosqichi unga mos bo'lgan muayyan sotsial institutlar "amal xilinishini taqozo etadi. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi tomon qadam tashlayotgan mustaqil mamlakatimizda yangi maqomga monand bo'lgan sotsial institutlar shakllanish jarayoni ro'y bermokda. Bular: iqqisodiy sohada — bozor iqtisodiyoti amal qilishiga xizmat qiladigan sotsial institutlar;siyosiy sohada-demokratik xokimiyat turli bo'g'inlari faoliyatini ta'minlovchi sotsial institutlar hamda jamiyat barcha jabhalarida yangi jamiyat tarziga hozirlovchi turli xil sotsial institutlardir. Prezident Islom Karimov izchil tadbiiqilayotgan konsepsiyaga muvofik yangi sotsial institutlar an'anaviy sotsial institutlarga mutlaqo qarama-qarshi ko'yilmasdan, balki jamiyatimizning o'tmishi, hozirgi kuni va kelajagi vorisligini ta'minlashga xizmat qiladigan, jamiyatdan begonalashmagan, mamlakatimiz mintaqasiga mos keladigan sotsial institutlar faoliyatiga yo'l ochib berilmoqda.

II.BOB. O‘ZBEKISTONDA OILANI FUQAROLIK INSTITUTI SIFATIDA RIVOJLANISHI:

2.1. Davlat va dinning oilaga munosabati.

O‘zbekiston o‘z milliy mustaqilligi tufayli milliy urf-odatlarini, diniy qadriyatlarini tiklandi. “Navro‘z” bayramidan diniy tamg‘a olib tashlandi. Ma’naviy hayotimizdagi diniy bayramlar, hayit kunlari respublikamizda umumxalq bayrami sifatida nishonlanib kelinmoqda. Ma’naviy hayotda islom dinining alhida o‘rni bor. Prezidentimizning 1992 yil 7 martdagi farmoni bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo‘yicha qo‘mita tashkil qilindi. 1992 yil 27 martda Prezidentimizning “Ro‘za hayitini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi. O‘zbekistonda 16 ta konfessiya mavjud bulib, 3 mingga yaqin diniy tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Davlat ular bilan o‘zaro munosabatda, o‘z dunyoviy xususiyatini hisobga olgan holda quyidagi tamoyillarga asoslanmoqda. Bu tamoyillarni Prezidentimiz Islom Karimov “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida...” asarida ko‘rsatib bergan edi.

Bular:

Dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish.

Diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish.

Diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham hududlarini teng kafolatlash hamda ularni taqib qilishga yo‘l qo‘ymaslik.

Ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati.

Dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligi e‘tirof etilganidir.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi 31 -moddasida bayon etilganidek, hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan diniga e‘tiqod qilish yoki hech

qaysi dinga e'tiqod qilmaslik xududiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi. Ana shu modda asosida 1998 yil 1 mayda Oliy Majlis XII-sessiyasida "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi.

Bugungi kunda O'zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta'minlash, demokratik fuqarolik jamiyati qurishning muhim shartlaridan biridir. Lekin mustaqillikning ilk yillarida dindan, ayniqsa islom dini qadriyatlarini to'g'ri tushunmaslik natijasida hududimizda diniy ekstremizim, fundamentalizim, vahobiylik xizbu-taxrir kabi oqimlar paydo bo'lib, o'tish davrida ayrim qiyinchiliklarni bo'rttirib ko'rsatib, mamlakatimizda islomiy davlat qurishni targ'ib qildilar. Masalan, 1999 yil 16 fevralda Toshkentda bo'lib o'tgan portlatishlar, bundan oldinroq Farg'ona vodiysida va boshda ba'zi viloyatlarda bo'lib o'tgan salbiy xodisalar va keyinchalik 2000 yillardagi, xususan, 2005 yil 12-13 mayda Andijon shahrida yuz bergan qo'poruvchilik harakatlarida o'zlarini islom xomiylari qilib ko'rsatgan akromiylar to'dasining qilmishlari: xunrezliklarga sabab bo'ldi.

Joriy yilning 16 noyabr kuni Toshkent islom universitetida Din ishlari bo'yicha qo'mita, Toshkent islom universiteti hamda O'zbekistondagi "YUNESKO" vakolatxonasi hamkorligida 16-noyabr "Xalqaro bag'rikenglik kuni"ga bag'ishlangan "Konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi" mavzusi ostida Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda xorijdan tashrif buyurgan diniy tashkilotlar rahbarlari Vatikan davlati nunsiysi I.Yurkovich, Rossiyaning Sverdlovsk oblasti muftiysi A.Asharin, Berlin-Brandenburg mintaqa apostoli V.Nadolni, diplomatik korpus vakillari, respublikada faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiyalar rahbarlari, milliy madaniy markazlar vakillari, Toshkent shahri oliy o'quv yurtlari talabalari ishtirok etdilar.

Anjuman boshlanishidan oldin mehmonlarga TIU va respublikadagi markaziy diniy tashkilotlarning nashriyotlarida chop etilgan diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlikni aks ettiruvchi adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Anjumanda demokratik rivojlanish yo'lini tanlagan O'zbekistonda jamiyat

barqarorligi asosini vijdon erkinligi, diniy e'tiqod va qarashlarni majbur etmaslik, barchaning millati, irqi va dinidan qat'iy nazar tenghuquqliligini ta'minlash kabi tamoyillar tashkil etishini ta'kidlandi. "O'zbekistonda davlat va din munosabatlari" mavzusida ma'ruza qilgan Din ishlari bo'yicha qo'mita raisi O.Yusupov, musulmonlarning masjidlari bilan xristianlarning ibodatxonalari, cherkovlari, yahudiylar sinagogalari va boshqa din vakillarining ibodatxonalari faoliyat ko'rsatayotganlari, ularning hamkorliklari bugungi O'zbekistonda bag'rikenglik yaqqol barq urib turishini ko'rsatib kelayotganini aytib o'tdi. Yurtimizda bir oila bo'lib 130 dan ziyod millat va elatlar hayot kechirishlari, 16 turli diniy konfessiyalar, 140 ga yaqin milliy madaniy markazlar, 2238 diniy tashkilotlar tinch va totuv faoliyat ko'rsatayotganlari alohida qayd etildi. O'zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy U.Alimov o'z chiqishida, jumladan, O'zbekiston zamini tarixlar osha diniy bag'rikenglik va millatlararo totuvlik makoni bo'lgani va bu xayrli an'ana hozirgi kunga qadar saqlanib kelayotganini ta'kidlab, Qur'on oyatlari assida islom dinining tinchliksevar va tinchlikparvarliligini batafsil so'zlab berdi. Rus Pravoslav cherkovi Toshkent va O'zbekiston yeparxiyasi vakili, protoiyerey S.Statsenko ham o'z ma'ruzasi orqali, o'z diniy va milliy bag'rikenglik asosida O'zbekiston, darhaqiqat, boshqa davlatlarga namuna bo'la olishini ta'kidlab o'tdi. Buning yaqqol dalili sifatida musulmon va pravoslav xristianlar orasidagi do'stona munosabatlar, shuningdek, "mahallalarda musulmonlar yolg'iz xristianlarni e'tiborsiz qoldirmayotganlarini, ularga yordam qo'lini cho'zayotganlarini" keltirib o'tdi. Anjumanda so'zga chiqqan Berlin-Brandenburg mintaqa apostoli V.Nadolni, Rim-katolik cherkovi O'zbekistondagi Nunsiyasi I.Yurkovich, RFning Sverdlovsk oblasti muftiyasi A.Asharin, Koreys milliy madaniyat markazi rahbari V.Pak va TIU 4-kurs talabasi N.Chuprunovalar so'zga chiqdilar. V.Nadolni so'zga chiqib, O'zbekistonga 1993 yilda ilk marotaba kelgan paytda bu zamin bag'rikeng va ko'ngli ochiq xalqiga hurmati beqiyos oshganini izhor etdi. I.Yurkovichning chiqishi, bugungi kunda Yer yuzida bo'lib o'tayotgan ekologik muammolarga nafaqat davlat tashkilotlari darajasida, balki turli diniy konfessiyalar hamkorligi asosida barham berish lozimligiga bag'ishlandi. A.Asharin ham O'zbekistonga,

yurtimizda olib borilayotgan din sohasidagi oqilona siyosat natijasida, bugun ham o‘z ilmiy salohiyatini tobora oshirib, uni “ma’rifiy islom makoni” deya sifatlab, xususan, “rossiyalik talabalar diniy ma’rifatini shu zaminda oshirishlari lozim”ligini ta’kidlab o‘tdi. V.Pak yurtimiz fuqarolarining milliy va diniy bag‘rikenglik asosida hayot kechirishlarini ta’kidlab, “o‘zinning eng katta baxtim, shu zamin – O‘zbekistonga xizmat qilishim” deb aytib o‘tdi. Umuman, anjuman ilmiyligi o‘z ifodasini topdi. Ishtirokchilar, bugungi dunyoning turli chekkalarida davom etayotgan ziddiyatli davrda tinchlik va osoyishtalikni saqlab qolishda jamiyatda dinlar va millatlararo totuvlik va birlikni qo‘llab quvvatlash lozim degan yakdil fikr bildirdilar.

Mamlakatimiz fuqarolarining ushbu uch tushunchani anglashlari barcha dinlarni va ularga e’tiqod qiluvchilarni to‘g‘ri tushunishlari va hurmat qilishlariga dalolat qiladi.

Bugungi kunda Yurtimiz musulmonlari va boshqa dinlarning vakillari bilan birgalikda yagona maqsad – Vatanimiz yanada gullab-yashnashi yo‘lida harakat qilmoqdalar.

Markaziy Osiyoda qadim davrlardan etnik va diniy xilma-xillikka e’tibor hamda hurmat bilan qarab kelingan. “Ming yillar mobaynida, – deb yozadi muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov, – Markaziy Osiyo g‘oyat xilma-xil dinlar, madaniyatlar va turmush tarzlari tutashgan va tinch-totuv yashagan markaz bo‘lib keldi. Sabr-toqat, bag‘rikenglik hayot bo‘ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy meyorlarga aylandi. Diniy bag‘rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o‘ziga xos qalqon vazifasini o‘tagan. U turli e’tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo‘lishiga, turli dinlar vakillari o‘rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo‘l ochgan”.

O‘zga xalqlar tili, urf-odatlar va an’analariga chuqur hurmat, ularning o‘zligini saqlab qolish, madaniy-ma’rifiy ehtiyojlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratish va har tomonlama yordam ko‘rsatish o‘zbekona bag‘rikenglikning yorqin xususiyatlaridandir. Aynan mana shunday bag‘rikenglik, sabr-bardoshlilik madaniyatimizning benazir namunalari saqlab qolish, asrlar

sinovidan olib o‘tish, kamol toptirish hamda o‘zga madaniyatlarning ahamiyatli natijalari bilan boyitishga keng imkon berdi. O‘z navbatida, bunday munosabat xalqimizga xos bo‘lgan xulq-odob meyorlari, ma’naviy qadriyatlarning qo‘shni xalqlar tomonidan qabul qilinishiga yo‘l ochgani ham tarixiy haqiqatdir.

Hanafiylik ta’limotini takomilga yetkazgan vatandoshlarimiz – al-Moturidiy, Abul Mu’in an-Nasafiy va al-Marg‘inoniy kabi allomalar musulmonlar orasidagi g‘oyaviy tarafkashliklikka barham berishga katta hissa qo‘shdilar. Nafaqat buyuk allomalar, balki O‘rta Osiyo hukmdorlari ham bu yo‘lda kurashdilar.

Samarqandlik faqih, mufassir Abu Lays as-Samarqandiy esa “Bahr al-ulum” nomli tafsir kitobida Qur’ondagi Mumtahana surasining 8–9-oyatlari sharhida: **“Sizlar bilan dinda urush qilmagan o‘zga din vakillari bilan bordikeldi qiling, ular bilan adolatli muomala qiling”**, deb yozadi. Movarounnahrlik yana bir mashhur faqih, mufassir Abul Barakot an-Nasafiy Islom olamida ma’lum va mashhur “Madorik at-tanzil” asarida mazkur oyatlarni **“O‘zga din vakillariga ehtirom ko‘rsating hamda ularga so‘zda va amalda yaxshilik qiling”**, deb sharhlaydi.

Alloh taolo Qur’oni karim oyatlarida musulmonlarni dindosh birodarlariga va barcha inson zotiga yaxshilik, mehr-muruvvat qilishga chorlash bilan bir qatorda, o‘zaro tinchlik va totuvlikda bo‘lgan boshqa din sohiblariga ham yaxshilikda va mehr-shafqatda bo‘lishlarini istagan holda marhamat qiladi: **“Din to‘g‘risida sizlar bilan urushmagan va sizlarni o‘z yurtiingizdan (haydab) chiqarmagan kimsalarga nisbatan yaxshilik qilishingiz va ularga adolatli bo‘lishingizdan Alloh sizlarni qaytarmas. Albatta, Alloh adolatli kishilarni sevar”**(*Mumtahana*, 8).

Sarvari olam Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) ham hadisi shariflarida bunday deb marhamat qilganlar: *“Barcha din ahliga xayru ehson qilingizlar”*.

Dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi nafaqat dindorlarning, balki butun jamiyat a‘zolarining ezgulik yo‘lidagi hamkorligini nazarda tutadi hamda tinchlik va barqarorlikning muhim sharti hisoblanadi. Azal-azaldan yurtimizning yirik

shaharlarida turli millat vakillarining ibodatlarini emin-erkin ado etishlariga alohida e'tibor qaratilgan, sharoitlar yaratilgan, tariximizning og'ir sinovli damlarida ham diniy asosda mojarolarning chiqmaganligi xalqimizning dinlararo bag'rikenglik borasida ulkan tajribaga ega ekanligidan dalolat beradi.

Bugun O'zbekiston diniy bag'rikenglik va murosa borasida nafaqat MDH davlatlari, balki butun dunyoga namuna bo'lmoqda. Bu haqda Moskva va Butunrus patriarxi Aleksey, Xillari Klinton va Madlen Olbrayt, Iordaniya shahzodasi Hasan ibn Tallol kabi dunyo miqyosida katta obro' va nufuzga ega insonlar ham yurtimizga ziyoratlari vaqtida ta'kidlab o'tdilar. Albatta, xalqimizga xos bu xislat bir zumda paydo bo'lgan emas, balki uzoq tarixiy asoslariga ega.

Mustaqillik yillarida kutilmagan voqealarga ham duch kelindi. Xalqaro terrorism bilan uyushib ketgan diniy ekstremizm endilikda umumbashariy muammoga aylandi. Uning yechimi bir mamlakatning qo'lida emas, balki xalqaro miqyosdagi say-harakatlarni talab qiladi.

Ana shunday murakkab vaziyatda ham, O'zbekiston hukumati diniy bag'rikenglik siyosatini olib bormokda. Respublikada islom bilan bir qatorda boshqa noislomiy konfessiyalar ham emin-erkin faoliyat ko'rsatmokda. Fuqarolarga millati, irqi, dinidan qat'i nazar, teng huquqlar qonun orqali kafolatlangan. Buni diyorimizga ochiq qalb bilan kelayotgan har bir mehmon o'z ko'zi bilan ko'rmoqda va e'tirof etmokda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, xalqimiz diniy va ma'naviy qadriyatlarining hozirgi demokratik jamiyat qadriyatlari bilan uyg'unlashishi respublikamizning kelajakda yanada ravnaq topishi, jahon hamjamiyatiga qo'shilishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Dunyodagi dinlarning barchasi ezgulik g'oyalariga asoslanadi va yaxshilik, tinchlik, do'stlik kabi xususiyatlarga tayanadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda barcha diniy tashkilotlarga qonun doirasida teng sharoit yaratib berilgan bo'lib, ularni qonunga mos istaklarini barchasi ro'yobga chiqarilmoqda. Eng quvontiradigan jihati shundaki, barcha konfessiya

vakillari bir oila a'zolari singari jamlanib, o'zaro do'stona va samimiy muloqot asosida birdek ishtirok etmoqdalar.

Abu Abdulloh Rudakiy: "**Kishilar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamkorlik kishilik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega ishdir. Haqiqiy do'stlik uchun kishilarni, hatto turli dinda bo'lishlari ham halaqit bermaydi**", deb ta'kidlaydi.

Shuni ishonch bilan aytish mumkinki, O'zbekiston umumiy ravishda dinlar va millatlararo totuvlik o'rnata olgan va bu sohada namuna bo'la oladigan davlatdir. Mustaqil O'zbekistonning istiqbol sari rivojlanishida yoshlar, jumladan, o'sib kelayotgan barkamol avlodning ma'naviy yetukligi, puxta, keng va chuqur bilimli bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada mamlakatimizda olib borilayotgan tub islohatlar, ta'lim-tarbiyaga bo'lgan e'tibor va yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar alohida o'rin egallaydi. Lekin shunday imkoniyatlar mavjud bo'lgan hozirgi zamonda ham ayrim yoshlarimiz o'zlari bilib-bilmay noqonuniy diniy tashkilotlarga yoki inson va jamiyat hayoti uchun o'ta xavfli bo'lgan ekstremistik guruhlariga a'zo bo'lib kirmoqdalar. Zero, hozirgi kunda diniy terrorizm va xalqaro ekstremizm eng xavfli global muammolardan biri hisoblanadi. Diniy tashkilot — O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining dinga e'tiqod qilish, ibodat, rasm-rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan ko'ngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy o'quv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar). Diniy tashkilot O'zbekiston Respublikasining o'n sakkiz yoshga to'lgan va O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashayotgan yuz nafardan kam bo'lmagan fuqarolari tashabbusi bilan tuziladi. Prezidentimiz I.A.Karimov ko'pgina asarlarida, muxbirlar savollariga bergan javoblarida dunyoviy davlatimiz bilan din munosabatiga alohida e'tibor berib kelmoqda. "Hozirgi paytda ro'y berayotgan ayrim salbiy, nojo'ya xatti-harakatlar, yovuz ishlar, avvalo, mafkuraviy bo'shlik tufayli sodir bo'lmoqda. Nega deganda, hali hayot tajribasiga ega bo'lmagan, oq-qorani tanib ulgurmagan yoshlar har turli ta'sirlarga beriluvchi bo'ladi. Misol uchun, ba'zi yoshlarni yo'ldan chalg'itayotgan diniy ekstremizm xavfini olaylik.

Bu xatarli oqim o'ziga xos tarixga ega. Xususan, 80-yillarning oxirida mamlakatimizga o'zini "do'st", "dindosh", "millatdosh" qilib ko'rsatib, go'yo islom dinining sofligi uchun kurashga "da'vat" etuvchi ayrim kimsalar kirib keldi. Ular muqaddas dinimizning asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g'o'r yoshlarni o'z tuzog'iga ilintirib, bizga yot, begona bo'lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi. Ammo o'sha paytlarda kommunistik tuzum zulmidan endigina ozod bo'lib, erkin nafas ola boshlaganimizda bu masalani, ya'ni sunniy-xanifiya mazhabimiz talablarini chuqur tushunadigan, Qur'oni Karim oyatlarini izohlab, odamlarga to'g'ri yo'l ko'rsatishga qurbi yetadigan ulamolar, afsuski, juda oz edi. Shunday bir vaziyatda aqidaparastlar juda "chiroyli da'vatlar" bilan chiqib, ayrim yoshlarni o'ziga mahliyo qilishga erishdi ham"1993 yildayoq I.A.Karimov xorij muxbirlari savollariga bergan javoblarida Islom eksterimizmi va aqidaparastlikning O'zbekiston, butun mintaqamiz uchun xavf-xatar solayotganini ko'rsatib o'tgan edi. Jumladan, Italiya, ANSA muxbiri Ludji Sadrining "Islom aqidaparastligiga munosabatingiz qanday?" degan savoliga shunday javob berdi: "Nazarimda, "Aqidaparastlik" tushunchasining o'zi keng qamrovlidir. Islomda aqidaparastlik bor. O'zbekistonda Islom aqidaparastligi xavfi bor va bu xavf ortib bormoqda".O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 12-moddasida shunday deyiladi: O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanadi. Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o'rnatilish mumkin emas. "Mafkura har qanday jamiyat hayotida zarur. Mafkura bo'lmasa odam, jamiyat, davlat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar. Ikkinchidan, qayerda mafkuraviy bo'shliq bo'lsa, o'sha yerda begona mafkura hukmronlik qilishi tayin... Rang-barang, ba'zan bir-biriga mutlaqo zid dunyoqarashlar, siyosiy, milliy, diniy oqimlar, mazhab va firqa o'rtasidagi fikr talashuvlari goho bahs-munozara doirasidan chiqib, qonli to'qnashuvlar, ommaviy qirg'inlarga sabab bo'lmoqda, odamlar boshiga behisob qayg'u-kulfatlar solmoqda... Demak, bugungi kunda g'oyani, fikrni ta'qiq bilan, ma'muriy choralar bilan yengib bo'lmaydi. G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga karshi fikr, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan bahsga

kirishish, olishish mumkin” Shunday qilib, muhtaram yurtboshimizning intervyularida va asarlarida mustaqil O‘zbekistonimizning iqtisodiy, ijtimoiy, ilm-fan, tarix, siyosiy va ma’naviy, din jihatlardan rivojlantirish masalalari bilan birga mafkura masalalariga jiddiy e’tibor berilib, yosh avlodni, zamonaviy milliy kadrlarni tayyorlash muammolariga oid nazariy va amaliy fikrlar bayon qilingan.

2.2 OILA VA DEVIANT HULQ-ATVOR HAQIDA MA'LUMOTLAR

Deviatsiya nazariyasi.

Madaniy nomaqbul og'ishlarning cheklangan qismi zamirida ruhiy nuqsonlar yotadi. Bunday og'ishlarning sabablarini aniqlash va o'rganish uch nazariya asosida: jismoniy tiplar nazariyalari, 2)psixoanalitik nazariyalar va sotsiologik yoki madaniy nazariyalar doirasida amalga oshiriladi

Deviatsiya

nazariyasi

5.4.10-Chizma

Muallif	Tushuntirish TIPI	Asosiyg'oya	Nazariya
Biologik	Jismoniy jixatlar jinnoiy moyilliklar bilan bog`liq	Lombrozo	Jismoniy xususnyatlar deviatsiyaomiln xneoblanadi
	Devnantlar orayendaaynnksa kup Uchraydigan tuznlishi	Sheldon.	
Psixologii	Psixoanalitik iazariya	Freyd.	Shaxsga xos konfliktlar deviatsiyaga sabab buladi.
Sotsiologik	Anomiya	Dyurkgeym.	Deviatsiya, shu jumladan uzini - Uzi uldirishlar anik ijtimoiy meyorlar buznlishi yoki yukigi tufayli yuz beradi.
	Ijtimoiy dezorganizatsiya	Shou va Makkey.	Deviatsiyaniig kupgnna turlari madaniy kadriyatlar, meyorlar va ijtimoiy alokalar buzilgan, zaiflashgan yoki to'kiashgan
	Anomiya	Merton.	Mazkur madaniyatda makbul bo'lgan maksadlar va ularga erishishning ijtimoiy yullari urtasida tafovut aniklansa, deviatsiya kuchayadi.
	Kulturologik nazariyalar	Sellin, Miller, Suterlend, Klauord va Ouliy.	Deviatsiyaga submadaniyat meyorlari va xukmron madaniyat Urtasidagi to'qnashuvlar sabab buladi.

	Stigmatizatsiya (yorlik yopishtirish) nazariyasi	Bekker.	Deviatsiya – xoknmnyatga ega guruhlar ka m rok darajada ximoyalangan guruhlar hulq- atvoriga yopishtiradngan uziga xos yorlik.
	Radikal kriminologiya	Turk, Kvinni, Teylor, Uolton	Deviatsiya kapitalistik jamiyat meyorlariga karshi xarakat maxsulidir.

Jismoniy tiplar nazariyalari shaxshulq-atvorida meyordan og‘ish hollari uning, muayyan jismoniy xususiyatlari bilan belgilanadi, degan g‘oyagaasoslanadi.

Mazkur nazariyalarning namoyandalari orasida CH.Lombrozo,E.Kretshmer, V.Sheldon alohida o‘rin egallaydi. Ushbu mualliflarning asarlarida asosan muayyan jismoniy konstitusiyali odamlar jamiyat tomonidan qoralanadigan ijtimoiy og‘ishlarni sodir etishga moyildirlar, degan fikr ilgari suriladi. Zamonaviy nazariyalar orasida V.Sheldon nazariyasi ayniqsa puxta ishlab chiqilgan. U og‘uvchi xulq-atvor sifatida tavsiflanadigan qilmishlar sodir etishga o‘z ta’sirini ko‘rsatadigan insoniy xususiyatlarning uch asosiy tipini ajratgan. Bular: endomorf tip (semizlik); mezomorf tip (sermuskullik), ektomorf tip (oriqlik). V.Sheldon har bir tipga xos bo‘lgan hulq-atvorning muayyan turlariga dam tavsif bergan. Masalan, jinoyatchilar va piyonistalar asosan mezomorf tiplarga kiradilar. Biroq amaliyot jismoniy tiplar nazariyalari asossiz ekanligini isbotlagan. Xushsurat odamlar o‘ta ogir jinoyatlar sodir etgan, ko‘rinishdan dag‘al individ esa pashshaga ham ozor yetkazmaydigan inson bo‘lganhollarga ko‘plab misollar keltirish mumkin.

Psixoanalitik nazariyalar zamirida shaxs ongida yuz berayotgan konfliktlarni o‘rganish yotadi. 3.Freyd nazariyasiga ko‘ra, har bir shaxsda faol ong qatlami ostida ongsizlik sodasi mavjud. Ongsizlik - insonning chegarasiz tabiiy, ibtidoiy xususiyatlarni jamlagan ruhiy energiyasi, uning madaniyat ta’siridan holi biologik mohiyati. Inson o‘zining tabiiy “qonunsizlik” holatidan o‘z-o‘zligini, shuningdek jamiyat madaniyati bilan belgilanadigan umumiy o‘zlikni shakllantirish yo‘li bilan himoyalanihga qodir. Inson o‘zligi va umumiy o‘zlik ongsizlik holatidagi kuchlarni muttasil ravishda tiyib turadi, instinktlar va tuban mayllarni jilovlaydi. Ammo o‘zlik va ongsizlik o‘rtasida to‘qnashuv yuz berishi va insonning madaniyatni bilmaydigan ichki omillari sirtga chiqishi, ijtimoiy

muhitdagi madaniy meyorlardan og‘uvchi hulq-atvorga sabab bulishi mumkin.

Xo‘sh, deviantlar nima uchun paydo bo‘ladi? Bu savolga ijtimoiy og‘ishlarning sotsiologik yoki madaniy nazariyalari javob topishga harakat diladi.

Sotsiologik yoki madaniy nazariyalarga muvofiq individlar guruhdagi ijtimoiylashuv jarayoni muayyan meyorlarga nisbatan samarali bo‘lmagan holda deviantlarga aylanadilar. Bu muvaffaqiyatsizlik shaxsning ichki strukturasi ta‘sir ko‘rsatadi. Agar ijtimoiylashuv jarayoni samarali bo‘lsa, individ avval o‘zini qurshagan muhitdagi madaniy meyorlarga moslashadi, so‘ngra ularni o‘zlashtiradi. Shu tariqa jamiyat yoki guruhning ijtimoiy maqbul meyorlari va qadriyatlarini uning emotsional ehtiyojiga, tadidlar esa - individ ongining tarkibiy qismiga aylanadi.

Oila ma‘naviy qadriyatlar va hulq-atvor meyorlarini o‘zlashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mustahkam va sog‘lom oilada o‘sgan bola odatda komil inson bo‘lib yetishadi. Oiladagi beqarorlik bola tarbiyasida nuqsonlar paydo bo‘lishiga, og‘uvchi hulq-atvorning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Yoshlar jinoyatchiligiga oid ko‘p sonli tadqiqotlar og‘uvchi hulq-atvorli yoshlarning 85% beqaror oilalarda tarbiyalanganlarini ko‘rsatdi.

Amerikalik ijtimoiy psixologlar oilaviy hayotni beqaror sifatidatavsiflash imkonini beruvchi besh asosiy omilni aniqlaganlar:

- otaning o‘ta qattiqqo‘ligi;
- ona mehrini ko‘rmaganlik;
- ota bilan lozim darajada yaqin emaslik;
- ona bilan lozim darajada yaqin emaslik;
- oilada inoqlikning yo‘qligi.

Bu omillarning barchasi oilada bolaning ijtimoiylashuvi jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi va pirovardida og‘uvchi hulq-atvorli shaxs voyaga yetishiga olib keladi.

Ammo og‘uvchihulq-atvor ko‘rinishlari har tomonlama barqaror oilalarda paydo bo‘lishi ham mumkin. Gap shundaki, oila shaxsning ijtimoiylashuvida ishtirok etadigan birdan-bir ijtimoiy institut emas. Bolalikdan o‘zlashtirilgan meyorlarni shaxso‘zini qurshagan ijtimoiy muhit bilan o‘zaro alokaga kirishish jarayonida kayta kuishi yoki ulardan voz kechishi mumkin.

Tinimsiz o'zgaruvchi murakkab jamiyatda turli submadaniyatlarning meyorlari va madaniy qadriyatlari ko'pincha bir-biri bilan to'qnashadi. Bir- biriga zid normativ andozalar og'uvchihulq-atvor fenomeni vujudga kelishiga imkoniyat yaratadi. Kundalik amaliyotda ko'p sonli konfliktlashuvchi normalar mavjudligi va buning oqibatida hulq-atvor tarzini tanlash imkoniyatining nomuayyanligi E.Dyurkgeym anomiya (meyorlar yo'qligi holati) degan xodisa yuz berishiga olib keladi. T.Parsons fikriga ko'ra, anomiya hulq-atvor uslubining beqarorligi bilan tavsiflanadi. R.Merton anomiya hulq-atvor uslubini tanlash erkinligidan emas, balki individlar o'zlari to'la qabul qilgan meyorlarga rioya etish imkoniyatiga ega emasligidan kelib chiqishini qayd etadi. Og'ishlar madaniy maqsadlarga va ularga erishish uchun muayyan shaxs foydalanadigan institusional vositalarga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. R.Merton maqsadlar va vositalarga nisbatan shaxslar hulq-atvori tipologiyasini ishlab chiqqan.

Deviant va delinkvent (lot. qonunbuzar) hulq-atvor. Ijtimoiy meyorlarni o'zlapggirish ijtimoiylashuv jarayonining negizidir. Mazkur normalarga rioya etish jamiyatning madaniy darajasini belgilaydi. Umum e'tirof etilgan meyorlardan og'ish sotsiologiyada deviant hulq-atvor deb ataladi. Keng ma'noda "deviatsiya": a) yozilmagan meyorlarga va b) yozilgan meyorlarga mos kelmaydigan har qanday qilmishlar yoki xarakatlarni anglatadi. Tom ma'noda "deviatsiya": nomuvofiqlikning birinchi tipigagina tegishlidir, ikkinchi tip esa delinkvent hulq-atvor degan nom olgan.

Ijtimoiy meyorlar ikki xil bo'ladi:

yozilgan meyorlar - konstitusiyada, jinoyat huquqida va boshqa yuridik qonunlarda rasman kayd etilgan meyorlar bo'lib, ularga rioya etilishi davlat tomonidan kafolatlanadi;

yozilmagan meyorlar - hulq-atvor norasmiy meyorlari va qoidalari bulib, ularga rioya etilishi davlat tomonidan kafolatlanmaydi. Ular fakat mavjud an'analar, odatlar, etiket, hulq-atvor andozalari bilan belgilanadi.

Rasmiy meyorlarni buzish delinkvent (jinoiy) hulq-atvor deb, norasmiy meyorlarni buzish esa - deviant (og'uvchi) hulq -atvor deb ataladi. Deviant hulq -atvor nisbiy, delinkvent hulq-atvor esa mutlaqdir. Bir kishi yoki guruh uchun og'ish hisoblangan hulq-atvor boshqalar uchun odat tusini olgan bo'lishi mumkin. Oliy tabaqa vakillari o'z hulq-atvorini meyor deb, boshqa tabaqa, ayniqsa quyi tabaqalar vakillarining hulq-atvorini esa -

og'ish deb hisoblaydilar. Deviant hulq-atvor nisbiydir, zero u faqat mazkur guruhning madaniy mayorlariga daxldordir. Biroq delinkvent hulq-atvor mamlakat qonunlariga nisbatan mutlaq xususiyat kasb etadi. Quyi tabaqa vakillari ko'cha talonchiligini pul topishning normal turi yoki ijtimoiy adolatni qaror toptirish yo'li deb hisoblashlari mumkin. Ammo bu og'ish emas, balki jinoyatdir, chunki mutlaq meyor - talonchilikni jinoyat sifatida tavsiflaydigan yuridik qonun mavjud.

Delinkventlik. O'g'rilik, poraxo'rlik, talonchilik yoki odam o'ldirish jinoyatlari davlatning shaxshuquqlarini kafolatlovchi asosiy qonunlarini buzadi va jinoyat qonuniga muvofiq ta'qib qilinadi. Jinoyatchilar sudga tortiladi, ularga jazo choralari: turli muddatlarga ozodlikdan mahrum qilish (jinoyatning og'irlik darajasiga qarab), ahloq tuzatish yoki katorga ishlari, muayyan huquqlardan mahrum qilish va xokazolar tayinlanadi. Jinoyatlar katoriga firibgarlik, o'zganing mulkini talon-toroj qilish, xujjatlarni qalbakilashtirish, pora olish-berish, josuslik, vandalizm, o'g'rilik, o't qo'yish, prostitutsiya, qimor uynash va boshqa turdagi g'ayri qonuniy harakatlar kiradi.

Deviantlik. Ko'chada qip-yalangoch yurish, hojatta chikish, so'kinish, baqirib gaplashish kabi harakatlar jinoyat huquqini buzmasa-da, hulq-atvor meyorlariga zid hisoblanadi. Bunday harakatlar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish, jarima to'lash nazarda tutiladi, ular atrofdagilar tanbexi yoki salbiy ko'z qarashiga sabab buladi. Deviant hulq-atvor shakllariga jinoyatchilik, alkogolizm, giyoxvandlik, prostitutsiya, besoqolbozlik, qimor o'ynash, ruhiy holatning buzilishi, o'zini - o'zi o'ldirish kiradi.

Shunday kilib, sotsiologiyada deviant hulq-atvor delinkvent hulq-atvor atamasidan kengroq tushuniladi. Boshqacha qilib aytganda, birinchi tushuncha ikkinchi tushunchani tarkibiy qism sifatida o'z ichiga oladi. Deviantsiya- normalarning har kandy tarzda buzilishi, delinkventlik esa - faqat jinoyat qonuniga muvofik jazoga tortishga sabab bo'luvchi kilmishlardir. Sotsiologiyada bu tushunchalarning keng talqini ham, tor talqini ham teng darajada qo'llaniladi.

Deviant hulq-atvor madaniy relyativizm, ya'ni har qanday ijtimoiy meyorlarning nisbiyligi bilan tavsiflanadi. Ayrim primitiv qabilalarda kannibalizm, gerontotsid (qariyalarni o'ldirish), qon qo'shilishi va infantitsid (bolalarni o'ldirish) ibtidoiy davrda iqtisodiy omillar (oziq-ovqat maxsulotlarining taqchilligi) yoki ijtimoiy targ'ibot

(qarindoshlar o'rtasida nikohga ruxsat berilishi) bilan bog'liq normal xodisa hisoblangan va hozir xam shunday.

Madaniy relyativizm bir jamiyatdagi ikki yoki bir nechta yirik ijtimoiy guruhlarining qiyosiy tavsifi bo'lishi ham mumkin. Bu xolda submadaniyat haqida gapirish o'rinni bo'ladi. Bunday guruhlariga siyosiy partiyalar, hukumat, ijtimoiy sinf yoki qatlam, dindorlar, yoshlar, xotin-kizlar, pensionerlar, milliy ozchiliklar misol bo'lishi mumkin.

Urushda odam o'ldirish ruxsat etiladi va xatto taqdirlanadi, ammo tinch davrda jazolanadi. Parijda prostitutsiya qonunlashtirilgan, boshqa mamlakatlarda esa u nolegal va deviant hisoblanadi. Binobarin, deviantlik mezonlari mazkur madaniyat uchun nisbiydir. Bundan tashqari, deviantlik mezonlari vaqto'tishi bilan ayni bir madaniyat doirasida xam o'zgaradi. Sobiq Sovet Itgifoqida XX asrning 60-70-yillarida uzun soch qo'yish "burjuycha turmush tarzi"ga taqlid deb hisoblanar va o'kituvchilar uzun soch qo'ygan o'quvchilarga qarshi kurashar edilar. 80-yillar oxirida bu yerda jamiyat o'zgardi va uzun soch qo'yish deviasiyadan meyorga aylandi.

Shunday qilib, keng ma'nodagi deviasiya nisbiy bo'lib, u tarixiy davr va jamiyat madaniyati bilan belgilanadi. Nisbiylik sotsiologiyada relyativizm degan nom olgan.

Istiqlol yillarida ijtimoiy sohaning yirik va keng ko'lamli yo'nalishlaridan biri bo'lgan madaniyat sohasi, ayniqsa, mamlakatimizning shahar, tumanlari, qishloqlari va chekka hududlarida istiqomat qiladigan aholining barcha qatlamlariga madaniy xizmat ko'rsatish, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlariga xizmat qiladigan madaniyat muassasalariga e'tibor ko'rsatish, ularning moddiy- texnik negizini zamon talablari asosida qayta ko'rib chiqish, ularning maqsad va vazifalarini to'g'ri belgilash, milliy manfaatlarimizga xizmat ko'rsatadigan muhim maskanga aylan- tirish masalasi ham davlatimiz rahbarining e'tiboridan chetda qolmadi. Sobiq kommunistik partiya g'oyalarining targ'ibotchisi vazifasini bajarib kelgan klublar, madaniyat uylarining ahvoli juda achinarli holatga kelib qolgan edi. Ularning ko'pchiligi o'z binosiga ega bo'lmay, hisobotlardagina qayd qilinar edi. Ana shunday noxush holatlarni bartaraf etish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish maqsadida Vazirlar Mahkamasining topshirig'iga asosan barcha klub muassasalari, madaniyat uylari

to'liq inventarizatsiyadan - xatlovdan o'tkazildi.

Belgilangan chora-tadbirlar va olib borilgan amaliy ishlar natijasida hududlarda *zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari* - aholi, ayniqsa, qishloq joylarda yashovchi yoshlarning ma'naviy olamini yanada boyitish, mazmunli dam olishlarini tashkil etish hamda yurtdoshlarimizga yuqori saviyada madaniy xizmat ko'rsatish uchun yangi-yangi markazlar barpo etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013 yil 25 iyundagi 178-son qarori qabul qilindi. Milliy madaniyatimiz an'analarini o'rganish, aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo'llab-quvvatlash, mazmunli dam olishini ta'minlashga yo'naltirilgan qaror ijrosini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligining 2013 yil 28 iyundagi 704-son buyrugi qabul qilinib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatgan 1777ta madaniyat uylari va klublar negizida 894ta zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlari qayta tashkil etilib, ta'mirlanmoqda, moddiy- texnik bazasi to'liq yangilanmoqda.

Zamonaviy markazlarda yoshlarning estetik va ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan madaniy-ma'rifiy xizmatlarni keng yo'lga qo'yish, elektron resurslar, internet- studiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o'rganish kurslari, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o'yinlar bo'yicha musobaqalar, tanlovlar, foto va amaliy san'at ko'rgazmalari tashkil etiladi. Xalq ijodiyoti va tomosha san'atining minifestivallari, mahalliy urf-odatlar va an'analarni aks ettiruvchi ommaviy teatrlapggirilgan bayram tomoshalari, xalq sayillarini tashkil etish orqali badiiy ijod va amaliy san'atni rivojlantirish, milliy an'ana va qadriyatlarimizni targ'ib etish asosiy maqsad qilib belgilangan.

Zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarining boshqa madaniyat va san'at muassasalaridan farqi shundaki, ularda tashkil qilinayotgan to'garak va mashg'ulotlarga yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan havaskorlar, kasbidan qati nazar ishtirok etishlari mumkin. Markaz o'z faoliyatini O'zbekiston

Respublikasi Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, farmoyishlariga va boshqa qonun hujjatlariga, Madaniyat va sport ishlari vazirligining buyruqlari va metodik ko'rsatmalariga hamda tegishli Nizomiga muvofiq olib boradi.

Markaz turli yo'nalishlar va san'atning barcha janrlari bo'yicha tuzilgan havaskorlik to'garaklari, madaniy-ijodiy, ma'rifiy va dam olish faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni ta'minlaydigan davlat muassasasi shaklidagi yuridik shaxs hisoblanadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari joylashgan o'rni va xizmat ko'rsatadigan aholi soniga qarab I, II, III tiplarga bo'linadi.

tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo'lgan va kamida 400 o'rinli tomosha zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tumanning markazlarida faoliyat ko'rsatadi.

tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rinlar soni 250 tani tashkil etadigan zaliga ega bo'lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida faoliyat ko'rsatadi.

tip. Xizmat ko'rsatadigan aholi soni 7 ming nafardan ortiq bo'lgan va o'rinlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo'lgan holda tuman markazlari va qishloq joylarda faoliyat ko'rsatadi.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib, I, II, III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa faqat II va III tiplarga bo'linadi.

Madaniyat va aholi dam olish markazlari Qoraqalpog'iston Respublikasida 57 ta, Andijon viloyatida 83 ta, Buxoro viloyatida 49 ta, Jizzax viloyatida 36 ta, Navoiy viloyatida 32 ta, Namangan viloyatida 84 ta, Samarqand viloyatida 95 ta, Sirdaryo viloyatida 32 ta, Surxondaryo viloyatida 82 ta, Toshkent viloyatida 80 ta, Toshkent shahrida 34 ta, Farg'ona viloyatida 91 ta, Xorazm viloyatida 65 ta, Qashqadaryo viloyatida 74 ta bo'lib, Respublika miqyosida ularning soni 894 tani tashkil etadi.

Markazning ma'naviy-ma'rifiy vazifalari: Havaskorlik va xalq amaliy san'ati jamoalari, studiyalar, turli to'garaklar, xalq teatrlari, tarixiy-o'lkashunoslik, ilmiy-texnik, tabiat va ekologiya kabi turli ijtimoiy-madaniy sohalarga qiziquvchilarni birlaigtirib, havaskorlik klublarini tashkil etish hamda ular ishini takomillashtirish;

Foto va xalq amaliy san'ati asarlarining doimiy hamda vaqtinchalik ko'rgazmalari, tanlovlari, xalq ijodiyoti va tomosha san'atining turli festivallarini o'tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek, ularni ma'naviy qo'llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ'ib qilish;

Mahalliy urf-odatlar va milliy an'analarni aks ettiruvchi ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillarini tashkil etishdan iborat.

Xulosa

Madaniyat va aholi damolish markazlarida oila tarbiyasi masalalarining yo'lga qo'yilishini vatanimiz istiqloli sharofatidir. Oilada boshlanadigan shaxs tarbiyasi maktab, kollej, litsey hamda maktabdan tashqari muassasalar, ya'ni madaniyat aholi dam olish markazlari, "Kamolot"Yoshlar ijtimoiy harakati, Barkamol avlod markazlari, mahalla va boshqa tashkilotlarda amalga oshirilayotgan Komil inson tarbiyasi ishlari bilan uyg'unlahdi.

Sobiq sho'rolar tuzumi davrida oila va shaxs tarbiyasi madaniyat uylari,klublar faoliyatidagi o'rni belgilangan. Bu muassasalarda asosan siyosiy mafkuraviy ta'sir etish ishlari birlamchi o'rin tutgan, Inson sha'ni, g'ururi, milliy o'ziga xosligi va ayniqsa o'zining oilaviy o'y-tashvishlari davlat muassasalari e'tiboridan chetdagi,ikkinchi darajadagi ishlar deb qaralgan.

Mamlakatimizda esa mustaqillikka erishilgach , dastavval barcha islohot ishlari oiladan boshlandi.

Ayniqsa 2013- yilda qabul qilingan tarixiy qaror, ya'ni O'zbekiston Vazirlar Mahkamasining N 178-sonli "Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida" gi qaror bu sohada yirik islohotlar davrini boshlab berdi. Xususan madaniyat va aholi dam olish markazlari reja dasturlari mazmunida inson manfaatlari , ma'naviy kelajagini, shaxs tarqqiyoti, oilada tarbiyaviy ishlarni yaxshilash masalalari asosiy faoliyat obyektiga aylanganligi muhim ahamiyatga egadir.

Shu boisdan ham bitiruv malakaviy ishimizda madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatida oila tarbiyasini samarali uyg'unlashtirishga alohida e'tibor qaratdik. Buning uchun esa avvalo oilani alohida ijtimoiy institut sifatida chuqur tadqiq etdik va shu asosda oila tarbiyasi ham madaniyat va aholi dam olish markazlarining zamonaviy funksiyalari tarkibiga kirishi asoslandi.

Bitiruv malakaviy ishimizda quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Oila tarbiyasi uzoq va yaqin o'tmish tariximizda davlat muassasalari faoliyatining funksiyalari tarkibiga kirmagan.

2. **Madaniyat muassasalari asosan siyosiy-mafkuraviy tashkilotlar sifatida amal qilgan.**

3. **Madaniyat muassasalarida milliy o'zlikni anglash, ma'naviy merosni o'zlashtirish masalalariga e'tibor qaratilmagan**

4. **Aksariyat madaniyat muassasalari moslashtirilgan binolarda faoliyat yuritgan**

5. **Madaniyat muassasalarda oila, mahalla, Nuroniy, "Kamolot" Yo'IH ishlari fuqarolik institutlari bilan uyg'un va tizimli tarzda faoliyat olib bormagan.**

Bitiruv-malakaviy ishimizda quyidagi tavsiyalarni ilgari surdik:

1. **Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyati orqali oilaga asosan badiiy estetik tarbiya ta'sirini yo'lga qo'yish**

2. **Madaniyat va aholi dam olish markazlari imkoniyatlarini ishga soli xududdagi aholi qiziqishlarini mufassal o'rganishga qaratilgan sotsiologik so'rovnoma otkazish va uning natijalarini faoliyatga joriy etish**

3. **Madaniyat va aholi dam olish markazlari xodimlari tomonidan xududdagi oilalarni**

a) **Totuvligi**

b) **Mulkiy holati**

c) **Axloqiy- ma'naviy darajasi**

d) **Kasbiy yo'nalganligi**

e) **Mehnatkashlik darajasi**

f) **Badiiy-estetik qiziqishlari**

g) **Siyosiy-mafkuraviy qarashlari bo'yicha tasniflab chiqish:**

4. **Madaniyat va aholi dam olish markazlarida oila tarbiyasini yanada barqarorlashtirish maqsadida badiiy qiziqishlar asosidagi oilaviy musobaqalar, tanlovlar hamda viktorimalar o'tkazib borishni yo'lga qo'yish.**

5. **Madaniyat va aholi dam olish markazlarida yoshlarni hayotga tayyorlashga doir ya'ni "bo'lajak ona", "er-oila boshlig'i" "qaynona va qaynotaga munosabat", "jinsiy madaniyat asoslari bola tug'ilishi" singari**

doimiy faoliyat yurutuvchi uyushmalarni tashkil etib keng ko'lamli faoliyatni yo'lga qo'yish

6. Madaniyat va aholi dam olish markazlarining virtual makondagi saytni yaratib, masofadan turib oila tarbiyasiga oid maslahatlar berib borishni yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.A.Karimov “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”T 2008
2. I.A.Karimov Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo’lini qat’iyat bilan davom ettirishdir.-“Xalq so’zi”, 2007 yil, 8-dekabr.
3. I.A.Karimov Inson uning xuquq va erkinliklari hamda manfaatlari – eng oily qadriyat. –“Xalq so’zi”,2005yil,8-dekabr
4. I.A.Karimov “Inson baxt uchun tug’iladi. “Sharq” nashriyot-matbaa bosh tahririyati,T:2001.10-,14-,70-74-,95-betlar
5. “O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi” I.A.Karimov 2008.
6. Karimova B “Oila pedagogikasi” T. 2006
7. T.2010, M.Bekmurodov. Rashidova M “Muzeyshunoslik” T.2008
8. M.Bekmurodov, A.Umarov Z.Haydarov, U.Qoraboyev “Ijtimoiy-madaniy faoliyat nazaryasi tarixi va uslubiyoti”,T.2016
9. Alimova Sh.”Ijtimoiy-madaniy faoliyat asoslari” T.2010, Qoraboyev.U ”Madaniyat tarixi” T.2004
10. **A.Haydarov “Madaniyat va san’at soxasidagi me’yoriy hujjatlar majmui” T.2016**
11. **Navoiy A “Lison-ut-tayr”. Ilmiy- tanqidiy matn.-Toshkent, Fan, 1965.165-bet**
12. **Kant I. Soch. 6-t.T.4.CH.2 1965.-c.79**
13. **Gegel.Soch.T.,1929.-C.27-28**
14. **Teshaboyev F. Sayyid Ahmadjon “Xorijiy Sharq xalqlarining ilg’or ijtimoiy-falsafiy fikrlari tarixi ocherki” T.,fan, 1971.53-59- betlar**
15. U.Qoraboyev “O’zbek bayramlari” T.2009.
16. **Hikmatnoma . “O’zbek xalq maqolari”ning izohli lug’ati. O’zbek sovet ensiklopediyasi., T.1990. 14-38-41-133-134-189-475-betlar.**
17. **Xayrulayev M.M Abu Nasr Farobiy “O’rta Osiyoda pedogogik fikr taraqqiyotidan lavhalar” T: Fan,1996.120-bet**

18. Milliy istiqlol g'oyasi: ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLAR.-T.: "O'zbekiston", 2000.11-bet

19. Cho'lpon. "Yana oldim sozimni". T. G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991.433-bet

20. Sog'lom avlod-bizning kelajagimiz. T: Ibn Sino nashriyoti, 200.1-13, 63-68-betlar

Ilovalar

Sog'lom va mustahkam oila kelajak poydevori mavzusida davra suhbatini o'tkazdim.

19 may kuni Sirdaryo viloyati Guliston Qurilish kasb-hunar kollejining o'quv zalida "Voyaga yetmagan yoshlar" bilan ishlash bo'yicha "Sog'lom va mustahkam oila kelajak poydevori" mavzusida davra suhbatini tashkil etildi. Davra suhbatiga kollej direktori, ma'naviy-marifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari va kollej xodimlari hamda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi maxsus maktab internati o'quvchilari taklif etildi. Davra suhbatini davomida kutubxonaning faol foydalanuvchilaridan Akbarova Shaxrizoda o'zining ijodiga mansub she'rlardan namunalar keltirib o'tdi. Tadbir davomida ko'zi ojizlar kutubxonasi xodimi Sh.Abdurasulova tomonidan "Barkamol avlod tarbiyasi vatan ravnaqi" mavzusida tayyorlagan ma'ruzasini o'qib eshittirdi. Ushbu ma'ruzada "Sog'lom nasl-sog'lom jamiyat asosini tashkil qiladi. Sog'lom jamiyatni esa sog'lom turmush asoslarini ilmiy tadqiq etmay shakllantirib bo'lmaydi. Sog'lom, alpqomat, chehrasidan nur yog'ilib turgan navqiron yigit va qizlar har qanday millatning ko'rkidir. Ularni ko'rganda ko'z quvonadi, ko'ngil yashnaydi, g'urur-iftixorga to'ladi. Biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish, birinchi navbatda, oila, onalik va bolalikni himoya qilish masalasini o'zimiz uchun eng muhim, ustuvor vazifa sifatida belgilab olingan. Sog'lom va barkamol avlod tarbiyasini ham o'zimizdan, oilamizdan, atrofimizdan boshlasak, yuqori natijalarga erishamiz. Zero, komillikning birinchi sharti salomatlikdir. Jamiyatga sog'lom avlodni yetkazish esa o'z qo'limizda." -deb o'z ma'ruzasini yakunladi.

